**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON PEDAGOGIKA FANLARI ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI QORAQALPOG‘ISTON FILIALI**

BEKIMBETOVA GULBAXAR RISBAEVNA

TA’LIM BOSHQA TILLARDA OLIB BORILADIGAN MAKTABLARDA QORAQALPOQ TILINI O‘QITISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (qoraqalpoq tili)

**PEDAGOGIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2024

UDK: 372.881.1

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of doctor of sciences (DSc)

Bekimbetova Gulbaxar Risbaevna
Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitish mexanizmini takomillashtirish..... **5**

Бекимбетова Гулбахар Рысбаевна
Совершенствование механизма преподавания каракалпакского языка в школах с другими языками обучения……..... **29**

Bekimbetova Gulbahar Rysbaevna
Improving the mechanism for teaching the Karakalpak language in schools with other languages of instruction..... ..... **57**

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……..... **61**

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON PEDAGOGIKA FANLARI ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI QORAQALPOG‘ISTON FILIALI**

BEKIMBETOVA GULBAXAR RISBAEVNA

TA’LIM BOSHQA TILLARDA OLIB BORILADIGAN MAKTABLARDA QORAQALPOQ TILINI O‘QITISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (qoraqalpoq tili)

**PEDAGOGIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.DSc/Ped439 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Utebaev Tajibay Tileumuratovich** pedagogika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Axmedova Malohat Ergashevna** pedagogika fanlari doktori, professor
	Najimov Perdebay Aymanovich filologiya fanlari doktori, professor
	Raximov Baxtiyor Xudoyberdiyevich pedagogika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil «24» 08 kuni soat «10⁰⁰» dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25; faks: (99861) 223-59-25; e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (188 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «01» 08 kuni tarqatildi.
(2024-yil «01» 08 dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi).

K.K. Orazimbetov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

J.P. Asamatdinova
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

K.A. Yusupov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, ped.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta’lim muassasalarida til o‘rganish va o‘rgatishning kreativ modellari hamda kreativ texnologiyalari ta’lim jarayoniga tadbiq etilmoqda. Hozirgi davrda yoshlarga o‘zga tillarda ta’lim berish metodikasini rivojlantirish, ta’lim mazmunining lingvodidaktik va metodik asoslarini takomillashtirish, dialogik nutqqa e’tibor qaratish, o‘zga tildagi nutqiy muloqot madaniyati komponentlarini ona tili komponentlari bilan qiyoslash, shular asosida ularni o‘rgatishga doir noan’anaviy, innovatsion texnologiyalarga ko‘ra ish turlarini, mashqlar tizimini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish alohida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunoslari, xususan, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston va boshqa davlatlar metodist olimlarining ta’lim oluvchilardagi til o‘rgatish kompetensiyasini rivojlantirish, samaradorligini oshirish, interfaol ta’limni mediatexnologiyalar asosida tashkil etish, lingvodidaktikani rivojlantirish, til portfoliosi texnologiyasini ta’lim amaliyotiga ommalashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, tillarni o‘qitishda pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun turli yangi mazmundagi didaktik shakllardan foydalanish, innovatsion tavsifdagi ta’lim vositalarini amaliyotda qo‘llash, o‘qitilish jarayonini moderinizatsiyalash, o‘qib tushunish, tinglab tushunish, gapirish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha ham ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu esa ta’lim jarayonida bilimlarni o‘zlashtirishga mo‘ljallangan texnologiyalarni qo‘llash asosida tillarni o‘zlashtirishni jadallashtirishni taqozo etadi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ta’lim sifatini oshirish, maktab o‘quchilarinig bilimini, o‘quv-tarbiya faoliyatini takomillashtirish, o‘qitishning samaradorligini oshirish usullarini kuchaytirish, ta’limning har bir bosqichidagi maqsadni aniq belgilash, bilimlarni imkon darajasida to‘liq egallashning mexanizmlarini ishlab chiqishning asoslari tatbiq etilmoqda. Ta’lim sohasining oldida “...maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilim va tajribasini xalqaro darajaga olib chiqish”[1] asosiy va yetakchi vazifalar qilib belgilangan. Shuningdek, “yuqori sinflarda berilayotgan ta’lim va tarbiya sifati, o‘qituvchilarning bilimi va mahoratini talab darajasida deb bo‘lmaydi. 2023-yildan maktab ta’limini xalqaro ta’lim dasturlari asosida butunlay isloh qilishni boshlaymiz. Bu ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish, yangi darsliklarni ishlab chiqish, ilg‘or ta’lim standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriyalar tashkil qilinadi. Milliy o‘zligimiz timsoli, ma’naviyatimiz asosi bo‘lgan ona tilimizga e’tibor yanada kuchaytiriladi”[2]. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 29-dekabr kuni Xalqaro kongress markazida “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони. // https://lex.uz/uz/docs/5841063.

[2] https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatno-masi-toliq-matn.

yu yagona to‘g‘ri yo‘lidir!” mavzusidagi zamonaviy darsliklar ko‘rgazmasida: “XXI asr kishisi uchun eng zarur bo‘lgan “4K” ko‘nikmasi bo‘yicha ishlab chiqilgan (kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya) ko‘nikmalar, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish” masalalariga alohida e’tibor qaratish kerakligi va “...darsliklar quruq ma’lumotlarni yodlatish, yoki shunchaki o‘qish-yozishni o‘rgatish bilan cheklanmasligi, ular orqali o‘quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganishi zarur”[3], - degan fikrlari ona tilini o‘qitishga qo‘yilgan metodik takablarni yanada takomillashtirish bugungi kun uchun ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Bu masalalar mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kenesi Prezidiumining 2020-yil 3-noyabrdagi 135-son “Qoraqalpoq tilining davlat tili sifatidagi mavqeyi va nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari haqida”gi, 2021-yil 16-iyuldagi 410-son “Qoraqalpoq tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini rivojlantirish chora-tadbirlari haqida”gi qarorlari, shuningdek, ushbu dissertatsiya tadqiqoti mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tuzilishini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi[4]. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan sinflarda tilni o‘qitish, ta’lim jarayoni

[3] https://uza.uz/uz/posts/darsliklar-ozgaryapti-shunga-yarasha-oqituvchilar-ham-ozgarishi-kerak_440060.

[4] Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi www.utexas.edu, www.berkeley.edu, www.northwestern.edu, www.bu.edu, adwww.ecu.edu.au, unice.fr/en, www.u-bordeaux.com, www.lang.ox.ac.uk, english.pku.edu.cn, www.sophia.ac.jp/eng, www.u-tokyo.ac.jp.en, bsu.edu.az, www.msu.ru, www.bashedu.ru, www.kaznu.kz, www.navoiy-uni.uz va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion g‘oyalar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, ta’lim mazmuni, metodlari, shakllari va o‘quv-uslubiy ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanshlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari, jumladan, University of Pennsylvania, University of California, Northwestern University, Boston University (AQSh); Australian National University (Avstraliya); University of Nice Sophia Antipolis, University of Bordeaux (Fransiya); Oxford University Language Centre (Angliya); Peking University (XXR); Sophia University, University of Tokyo (Yaponiya), Budapesht telekommunikatsiya va media axborot texnologiyalari universiteti qoshidagi (Vengriya so‘zlashuv departamenti, tilshunoslik va so‘zlashuv ilmi), Fliyency va muloqot laboratoriyasi (elektropsixologiya, bolalar tili, neyroreabilitatsiya, musiqa persepsiyasi) ilmiy nutq laboratoriyasi (Xalqaro Avstraliya milliy universiteti), Braziliyada (Kompinas universiteti, Lafara) Fonetikada akustika va tajribaviy psixologiya markazi, Belgiya so‘zlashuv studiyasi (Belgiya tilshunoslik universiteti), Kanada audiologiya milliy markazi, Mayami muloqot maktabi studiyalarida olib borilmoqda.

Lingvodidaktik kasbiy tayyorgarlikkacha bo‘lgan kasbiy kompetensiyani rivojlantirish umumiy tamoyillari, til sistemasi va nutq masalasida dastlabki pragmatik g‘oyalar Amerikalik faylasuf va pedagog Djon Dyui hamda rossiyalik olim M.N.Skatkin fanlarni o‘qitilishida muammoli o‘quv topshiriqlarini tadqiq qilgan. Ularning o‘quv topshiriqlari tavsifi va tasnifiga doir yondoshuvlaridan dunyo miqyosida foydalaniladi. Til birliklarini izohlash, ularning pedagogik va psixologik talqini bo‘yicha S.L.Rubenshteyn[5], metodik amaliyoti bo‘yicha A.N.Leontev[6] tadqiqotlarida atroflicha o‘rganilgan. Til matni ustida ishlash orqali o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari tizimli ishlab chiqilgan (Ulyanovsk davlat universiteti, Rossiya); nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan bog‘liq muammolar yuzasidan kuzatishlar olib borilgan (Bright Hub Education, Angliya); tilni o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuvlar olib borilayotgan (Payomi Donishgohi Milliy Tochikiston, Tojikiston), nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qo‘yilgan (Janubiy Qozog‘iston pedagogika universiteti, Qozog‘iston).

Jahon ta’lim tizimida interaktiv o‘qitish tizimidan foydalanish (interactive E-learn) bo‘yicha tadqiqotlar yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlarda amalga oshirilmoqda. Jumladan, Purdue University (AQSh), interaktiv ta’limni amalga oshirish BMTning International Institute for Sustainabie Development (IISD), tilni o‘qitish muammolari (Baku: Azerbaycan Dövlet Pedagoji Universiteti) mavzularida ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda keyingi yillarda qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi bo‘yicha N.Bekniyazova, G.Jumasheva, A.Najimova, A.Naurizbayeva, D.Seytkasimov, A.Yembergenova, Q.Yusupovlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi[7].

[5] Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. –Санкт-Петербург: Питер, 2002, 720 с.

[6] Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. –М.: Мысль, 1976, 579 с.

[7] Бекниязова Н.И. Таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган мактабларнинг бошланғич синфларида ўқувчилар сўз бойлигини ошириш (предмет белгисини билдирган сўзлар мисолида): Пед. фан. номз... дисс. –

Mavzuga oid ishlar G.Ahrorova, M.Ernazarova, H.Mirzohidova, G.Muhamadjonova, R.X.Niyozmetova, M.Rixsieva, F.Umarova, Q.Holiqberdiyev, N.Z.Umarova, Sh.Yuldosheva, R.A.Yuldashevlarning[8], tilshunoslik sohasiga kompetensiyaviy yondashuvlarni joriy qilish, ta'lim oluvchining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish, uning faolligini va mustaqil ishlash kompetensiyasini tarbiyalash muammolari bo'yicha Sh.S.Abduraimov, I.A.Allayorov, G.M.Axmedova, M.E.Axmedova, L.Akramova, A.R.Hamroev, G.H.Hamroev, Q.Husanboyeva, A.G'ulomov, K.M.Mavlonova, B.Mengliev, M.M.Mirqosimova, X.S.Muxiddinova, O.R.Roziqov, R.Safarova, N.X.Sattarova, Q.Yo'ldoshevlarning ishlarida o'rganilgan[9].

Тошкент, 1998. – 134 б.; Жумашева Г. Икки тиллилик шароитида қорақалпоқ тилида сўзлашиш кўникмаларини шакллантириш (таълим рус тилида олиб бориладиган мактабгача таълим ташкилотларида ва умумтаълим мактабларининг бошланғич синфларида). Пед. фан. докт... дисс. автореф. – Нукус: 2021.– 68 б.; Наурызбаева А.С. Методика обучения конструированию предложении на уроках каракалпакского языка в начальных классах школ с русским языком обучения: Автореф. дис… канд. пед. наук. – Т., 2002.; Seytkasimov D.B. Filolog-talabalarning lingvistik kompetensiyasini takomillashtirish metodikasi (qoraqalpoq tili va adabiyoti yo'nalishi talabalari misolida): Ped. fan. dokt... diss. avtoref. – Nukus: 2023. – 70 б. Yembergenova A.A. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning imloviy savodxonligini takomillashtirish metodikasi (ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablar misolida): Ped.fan.(PhD). dokt… diss. avtoref. – Nukus: 2023. – 52 б.; Юсупов К. Академик лицейларда қорақалпоқ адабиётини ўқитиш методикаси (ташкил этиш шакллари, дарсдан ташқари машғулотлар). Пед. фан. докт... дисс. автореф. – Нукус: 2021. – 66 б.

[8] Аҳророва Г. Таълим бошқа тилларда олиб бориладиган мактабларнинг ўзбек тили дарсликларида кўмакчили бирикмаларни ўрганиш методикаси: пед. фан. ном. дис. – Тошкент. 1999.; Эрназарова М.С. Таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган мактабларнинг 2-синфларида ўзбек тилини ўқитиш методикаси: Пед. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент: 1999. – 22 б.; Мирзоҳидова Ҳ. Ўзбек мактабларида фонетикани қирғиз тилига қиёслаб ўрганиш; пед. фан. ном-ди дисс. ТДПИ –Тошкент, 1998.–143 б.; Муҳамаджонова Г. Дарс машғулотларидан ташқари машғулотларда русийзабон талабаларнинг ўзбекча нутқини ўстириш методикаси: Пед. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2003.; Рихсиева М. Таълим рус тилида олиб бориладиган мактабларнинг ўзбек тили дарс машғулотлариларида талабаларни матн тузишга ўргатиш: пед. фан. ном. ... дис. – Тошкент: 1998.; Умарова Ф. Русийзабон талабаларнинг нутқини кўмакчили бирикмалар воситасида бойитишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 1998.; Ҳолиқбердиев Қ. Ўқишлар рус тилида олиб бориладиган мактабларда ўзбек тилидан дастлабки таълим: Пед. фан. ном. ... дис.–Тошкент, 1971.; Умарова Н.З.Талабаларнинг ўзбекча ёзма нутқини ўстиришда замонавий технологиялардан фойдаланиш методикаси(техника олий ўқув юртларининг русийзабон гуруҳларида): пед.фан. номз.дис. –Т.: 2007.– 135 б.; Йўлдошев Р. Изучение падежных конструкций на уроках узбекского языка в III-VIII классах школ с русским языком обучения: Канд.дис. пед. наук. – Тошкент, 1979.

[9] Абдураимов Ш.С. Она тили таълимида ўқиб тушуниш малакасини баҳолашнинг илмий-методик асослари Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2021.; Аллаяров И.А. Дидактические основы активного обучения. Автореф. дисс. ... докт. пед. наук. –Т.: 1994. -44 с.; Ахмедова Г.М. Ўзбек тили дарсликларида талабалар нутқини ясама сўзлар билан бойитишнинг методик асослари: пед.фан. номз. … дис. – Тошкент, 2006. – 132б.; Ахмедова М.Э. Модул-кредит тизими учун тилшунослик фанларидан мустақил топшириқлар тузишнинг илмий-назарий асослари: пед.фан.д.(Dsc). док.… дисс. автореф. – Нукус: 2022. – 70 б.; Акрамова Л. Обучение письменной речи на базе научного текста по специальности в группах одаренных студентов медицинских вузов: Автореф. кан. дис. пед. наук. – Ташкент, 2001.; Ҳамроев А.Р. Она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштириш: пед.фан.д.(Dsc). док. … дис. –Т .: 2020.–242 б.; Ҳамроев Ғ.Х. Она тили таълимида ўқув топшириқларини ишлаб чиқишнинг лингводидактик асосларини такомиллаштириш: Пед. фан. докт... дисс. автореф. – Тошкент: 2022. – 65 б.; Ҳусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. докт.... дисс. – Тошкент, 2006. – 262 б.; Ғуломов А. Она тили ўқитиш принциплари ва методлари. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 225 б.; Мавлонова К.М. Она тили фанини адабиёт фани билан бадиий матн асосида интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш: пед.фан.б. фал. док... дис. – Тошкент, 2019. – 142 б.; Менглиев Б. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар: Филология фан. докт... дисс – Т.: 2002. 248 б.; Мирқосимова М.М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари: Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 253 б.; Муҳиддинова Х. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш: Пед. фан. номз.... дисс. ТДПИ. – Тошкент, 2011. – 270 б.; Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamrayev A. Ona tili didaktikasi. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi. 2005. 140-141-b.; Сафарова Р. Миллий тикланиш шароитида Ўзбекистон мактабларида она тили таълими назарияси ва амалиёти: Пед. фан. докт...

MDH davlatlarida til metodikasi bo‘yicha K.E.Bezukladnikov, A.P.Eremeeva, V.M.Klarin, V.Korovina, A.V.Koreneva, L.G.Larionova, V.A.Slastenin, G.V.Selixova, N.E.Sinichkina, E.E.Sirmanyuk, T.A.Sluxay, Z.F.Zeer, I.A.Zimnyayalar ilmiy-tadqiqotlar olib borgan[10].

Xorij olimlaridan Dj.Raven, Gabriela Kelemen, Francisco, J.Lozano tomonidan pedagogikaga oid masalalar tadqiq qilingan[11].

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining FZ-2016-0908165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitish mexanizmini ishlab chiqish, pedagogik amaliyotda foydalanish yo‘llarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitish mexanizmini qiyosiy o‘rganish, pedagogik ta’sir imkoniyatlarini anıqlash;

ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitishning lingvometodik ta’minotini yoritib berish;

ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitishning lingvopragmatik algoritmini ishlab chiqish;

дисс. –Тошкент, 1995. – 242 б.; Саттарова Н.Х. Ўқувчиларнинг иншо ёзиш малакаларини такомиллаштириш (5-синф она тили ўқитиш жараёнида): пед.фан. номз. … дис. – Т.: 1998. – 141 б.; Йўлдошев Қ. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 306 б.

[10] Безукладников К.Э. Формирование лингводидактических компетенций будущего учителя иностранного языка: концепция и методика: Автореф. дисс. ... докт. пед. наук. – Пермь, 2009. – 39 с.; Еремеева А.П. Формирования речевой деятельности учащегося в процессе изучения русского языка: Автореф. дисс... докт. пед. наук. – М.: МПГУ им. Ленина В.И., 1991. – 44 с.; Кларин М.В. Педагогическия технология в учебном процессе. – Москва: Знания, 1989.; Коровина В. Образовательные программы как способ развития речевой культуры учителя и учащихся. – Дисс. канд. пед. наук. –Оренбург, 1998. – 173с.; Коренева А.В. Коммуникативно-ситуативные задачи как средство обучения речевому общению: Автореферат дисс. канд. пед. наук. – М.:1994, 22 с.; Ларионова Л.Г. Коммуникативно-деятельностный подход к изучению орфографических правил в средней школе. Автореф. д-ра пед. наук: – Ростов н/Д, 2005. – 36с.; Сластенин В.А. Профессиональная готовность учителя к воспитательной работе: содержание, структура, функционирование // Профессиональная подготовка учителя в системе высшего педагогического образования. – М., 1982. – С. 14-28.; Селихова Г.В. Учебные задачи как средство формирования речевой деятельности учащихся 6–7 классов: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – М.: 1996, 24 с.; Синичкина Н.Е. Формирование лингвометодической компетенции будущего учителя родного русского языка в современном вузе: Автореф. дисс. ... докт. пед. наук. – Великий Новгород, 2010. – 47.; Слухай Т.А. Развитие речевой деятельности студентов в учебном процессе: Дисс. ... канд. пед. наук. – Оренбург, 1998.; Зеер Э.Ф., Павлова А.М., Сырманюк Э.Э. Модернизация профессионального образования: компетентностный подход. - М.: МПСИ, 2005. - 216 с.; Зимняя И.А. Компетентностный подход в образовании (методолого-теоретический аспект) // Проблема качества образования: матер. XIV Всерос. совещания. – М., 2004. – Кн. 2. – С.6-12.

[11] Равен Дж. Компетентность в современном обществе: Выявление, развитие и реализация. – М.: Когнито-Центр, 2002. -396 с. Gabriela Kelemen. Ways to determine students to become competent teachers // Elsevier. SciVerse Science Direct.–47. – 2012. – P. 1911-1916.; Francisco Lozano | Retired | PhD | Tecnológico de Monterrey | ITESM | Departamento de Ingeniería Química | Research profile (researchgate.net); Кларк Леонард Халл: гипотетико-дедуктивный метод и теория научения (psychosearch.ru)

o‘quvchilarning qoraqalpoq tiliga qiziqishini rivojlantirish, ijtimoiy-lingvistik kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi lingvometodik modelini ishlab chiqish;

o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini funksional-kommunikativ rivojlantirishga doir shart-sharoitlarini takomillashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitish jarayoni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahri, Ellikqal’a, To‘rtko‘l, Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot, Taxtako‘pir tumanlari umumta’lim maktablarining 345 nafar 5-7 sinf o‘quvchilari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitishda o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish, yangi texnologiyalar yordamida qoraqalpoq tilini tezkor o‘qitish metodlari, vositalari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, diagnostik (pedagogik kuzatish, suhbat, anketa-savolnoma), kognitiv-pragmatik, tasniflash, statistik tahlil, intervyu, pedagogik tajriba-sinov, natijalarni matematik statistik tahlil qilish singari tadqiqot usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitish jarayoni konsentrik tarzda o‘qitishni ta’minlash, o‘quvchilarning lingvokreativ, lingvopsixologik va individual-tipologik xususiyatlarini eksperimental dasturini loyihalash asosida aniqlashtirilgan;

maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitishda leksik birliklar orqali nutqiy faoliyatni (gapirish, o‘qish, tinglap tushinish, yozish) oshirishga qaratilgan lingvometodik ta’minotning konseptosferaviy taktikalarini differensiallash asosida takomillashtirilgan;

maktablarda qoraqalpaq tilini o‘qitishning lingvistik asoslari og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarining lingvopragmatik algoritmini strategik hisobga olgan holda integratsion moslashtirish orqali takomillashtirilgan;

maktablarda o‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-lingvistik kompetensiyaning bosqichlari reproduktiv+evristik, induktiv+deduktiv modelini reabilitatsion barqarorligini operatsion-me’yoriy muloqotni shakllantirishni hisobga olish asosida takomillashtirilgan;

ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitishda kommunikativ protsessual shakllar, fikrni bayon qilishdagi barqarorlik, o‘zgaruvchanlik, tushunchalarini muhokama qilishdagi funksional yondoshuvlar, nutqdagi samarali-semantik, selektiv va aergik individual to‘siqlarni bartaraf etib, “ikkilamchi” lingvistik shaxsni shakllantirish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Pedagogikalıq sheberliktiń teoriyalıq tiykarları” nomli o‘quv qo‘llanma yaratilgan;

“Házirgi qaraqalpaq ádebiy tili. Leksikologiya (jańa pedagogikalıq texnologiyalar tiykarında)” nomli o‘quv qo‘llanma yaratilgan;

“Psixologiyalıq terminlerdiń túsindirme sózligi” nomli o‘quv qo‘llanma yaratilgan;

“Pedagogtıń kásiplik kompetentligi hám sheberligi” nomli o‘quv qo‘llanma yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitishga oid konsepsiyalarga asoslanganligi, unda qo‘llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, tadqiqot maqsadi, obyekti, predmeti, vazifalariga mos keluvchi metodlar majmuasidan foydalanilganligi, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitish metodikasini rivojlantirish, bo‘lajak filolog-o‘qituvchilarning kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-didaktik konseptual asoslari ilmiy asoslanishi, ona tili ta’limi mazmunini isloh qilish nuqtayi nazaridan monografik jihatdan tadqiq qilinishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta’lim muassasalarining filologiya fakultetlarida “Ona tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi” fani bo‘yicha fan dasturlarini tuzishda, oliy ta’lim muassasalarida ixtisoslik fanlarni o‘qitishda, ma’ruza, amaliy, seminar materiallarini tayyorlashda, malaka oshirish kurslariga material sifatida foydalanishga, tegishli fanlardan qo‘llanmalar ishlab chiqishda, o‘qitishni yanada takomillashtirish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilishi bilan tushuntiriladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitish mexanizmini takomillashtirish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitish jarayoni konsentrik tarzda o‘qitishni ta'minlash, o‘quvchilarning lingvokreativ, lingvopsixologik va individual-tipologik xususiyatlarini eksperimental dasturini loyihalashga oid tavsiyalar “Ulıwma pedagogika (pedagogikalıq sheberlik)” darsligi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-son buyrug‘i asosida berilgan 418647633009071012-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitishga oid bilimlarining zamonaviy holatini tahlil qilishga sharoit yaratilgan;

maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitishda leksik birliklar orqali nutqiy faoliyatni (gapirish, o‘qish, tinglap tushinish, yozish) oshirishga qaratilgan lingvometodik ta’minotning konseptosferaviy taktikalarini differensiallashga oid takliflar “Ulıwma pedagogika (pedagogika teoriyasi)” darsligi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-son buyrug‘i asosida berilgan 403361-raqamli nashr ruxsatnomasi).

Natijada, ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitish ko‘nikmalarini takomillashtirishga sharoit yaratilgan;

maktablarda qoraqalpaq tilini o‘qitishning lingvistik asoslari og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarining lingvopragmatik algoritmini strategik hisobga olgan holda integratsion moslashtirishga oid takliflar “Ulıwma pedagogika (pedagogikalıq sheberlik)” darsligi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-son buyrug‘i asosida berilgan 418647633009071012-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitish samaradorligi oshgan;

maktablarda o‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-lingvistik kompetensiyaning bosqichlari reproduktiv+evristik, induktiv+deduktiv modelini reabilitatsion barqarorligini operatsion-me’yoriy muloqotni shakllantirishga doir takliflar “Ulıwma pedagogika (pedagogika teoriyası)” darsligi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-son buyrug‘i asosida berilgan 403361 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitish ko‘nikmalarni takomillashtirishga xizmat qilgan;

ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitishda kommunikativ protsessual shakllar, fikrni bayon qilishdagi barqarorlik, o‘zgaruvchanlik, tushunchalarini muhokama qilishdagi funksional yondoshuvlar, nutqdagi samarali-semantik, selektiv va aergik individual to‘siqlarni bartaraf etib, “ikkilamchi” lingvistik shaxsni shakllantirishga oid takliflardan Qoraqalpog‘iston telekanalining “Ushinshi renessans” ko‘rsatuvini, Qoraqalpog‘iston radiokanalining “Qayirli tang”, “Jaslar studiyasi” eshittirishlarini tayyorlashda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston teleradiokompaniyasining 2024-yil 13-iyundagi 05-22/290-son ma’lumotnomasi). Natijada, maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitish asosida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik ta’minotini takomillashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-nazariy va amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 41 ta ilmiy ish, jumladan, 1 monografiya, 1 ta darslik, 3 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 19 maqola, shundan, 12 tasi respublika va 7 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bob, xulosa, 221 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad vazifalari, tadqiqotning obyekti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma’lumotlar kiritilgan. Shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitishning nazariy va amaliy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitishda o‘quvchilarga nutq faoliyatining to‘rt shaklini (gapirish, o‘qish, gapirishni tinglab tushunish, yozish) o‘rgatishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan.

Dissertatsiyada kompetensiyaga asoslangan yondashuv sohasidagi yetakchi mutaxassislardan biri G.Jumashevaning ikki tillilik sharoyitida qoraqalpoq tilida nutq ko‘nikmasini shakllantirish metodikasi, A.Naurızbaevaning ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarning boshlang‘ich sinflarida qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish masalalari, E.Berdimuratov, Q.Pirniyazovlarning umumiy o‘rta ta’lim maktablarida qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish, Q.Yusupov, A.Tobanazarovlarning akademik liceylarda qoraqalpoq adabiyotini o‘qitish, D.Seytkasimovning filolog-talabalarning lingvistik kompetensiyasini takomillashtirish masalalari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilingan.

Mavzuga oid tadqiqotlardan R.A.Yo‘ldashev, M.Ernazarova G.Ahmedova, F.H.Aminova, M.M.Bazarova, X.Jumasheva, A.X.Jo‘raev, U.H.Islamov, X.S.Muxiddinova, R.O.Nabieva, G.Z.Muhamedjanova va B.Mengliyevning tilshunoslik, lingvodidaktika va metodikaga doir ilmiy tadqiqotlri har tomonlama tahlil qilindi.

Tadqiqotda til nazariyasi va nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, matn va lug‘at asosida milliy ma’naviyatni, tilning milliy xususiyatini o‘quvchilarga tushuntirish va nutqiy kompetentsiyalarni rivojlantirish masalalariga qaratdik. Asosan, nutq faoliyatining to‘rt shakli: gapirish, tinglap tushinish, o‘qish va fikrni yozma ifodalashni o‘rgatish va ularning yo‘nalishlardagi parametrlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Ikkinchi tilni o‘qitishda artikulyaciya qoydalari, ikkinchi tilda talaffuz qilish, tovush va harf obrazlarinig namunasi, fonetik va grafik nazorati, tilni o‘rgatishda to‘sqinlik qiluvchi polisemantik so‘zlar, o‘zlashtirayotganda o‘zi uchun hali notanish bo‘lgan tovush va harflar ustidagi ishlar, nutqiy faoliyatining asosi bo‘lgan qoraqalpoq tili leksik birliklari ta’limining nazariy va amaliy asoslari tasniflangan. Masalan, qoraqalpoq tilidagi *gósh, terek* singari so‘zlar oxiridagi undosh tovush o‘zbek tilidagi talaffuzda tushirib qoldirilishi kerak: *go‘sht, daraxt* singari.

L.V.Sherba shunday deydi: “...hatto eng zukko quloq bor narsalarni emas, balki faqat eshitib odatlangan narsanigina eshitadi”[12]. Lekin ularning hammasini

[12] Щерба Л.В. Фонетика французского языка. Изд 7-е.-М: Высшая школа, 1963. -С. 4.

talaffuz qila olmasligi aniq ekanligini isbotlab bergan. Haqiqatdan ham, aytilishi qiyinchilik bilan o‘zlashtiriladigan, ba’zi ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o‘quvchilar talaffuzida yo‘qori sinflarda ham talaffuz xatolariga sabab bo‘ladigan tovushlar (*o, q, ǵ, ó, i* va boshqa) sababli ko‘pgina so‘zlar “qiyin”ga aylanib qoladi. Asosan shu tovushlar aytilishi puxta o‘rgatilsa, shu tovushlar bo‘yicha talaffuz ko‘nikma va tajriybalari shakllantirilsa, eshitish nazorati tajriba darajasiga etkazilsa, tarkibida shu tovushlar bo‘lgan so‘zlarni og‘zaki gapirishda to‘g‘ri qo‘llanish ta’minlanishi mumkin. Bunday natijalarni ham to‘la tasdiqlaydi. Masalan, qoraqalpoq tilidagi ***á, ó, ú,*** unli tovushlari, shuningdek, ***ǵ, ń, h*** tovushlari rus va o‘zbek, qozoq, turkman tillarida ta’lim oluvchilar uchun talaffuz qilish qiyinshiliq tug‘diradi. Masalan: *átkonshek, ázzi, álem, ópepek, órmekshi, órim, úrdis, úshpelek, úy, úles, úki, ǵarbız, ǵarǵa, ǵaybar, ǵodalaq, ańshı, ańqıldaq, pańqıldaq*, *hárre, hákim, hárip* va boshqalar.

T.G.Ramzaevaning konsepsiyasi bo‘yicha, “muloqot maqsadida til nazariyasi asoslarini o‘zlashtirishga, nutqni aqliy va estetik rivojlantirishga, ona tilida gapiruvchi xalıqlar madaniyatini o‘zlashtirishga qaratilgan kognitiv faoliyat jarayoni ham natijasi”[13]. Shu bois, tilshunos o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasinig o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatuvchi, o‘ning tarkibida lingvometodik kompetensiya asosiy kompetentsiya hisoblanadi. Bu borada M.Ernazarova qoraqalpoq maktablarida o‘zbek tili fanini o‘qishda quyidagi talablarni sanab o‘tadi: 1) Rasmlarni ko‘ra olish va mazmunini tushish va og‘zaki aytib bera olish; 2) o‘zbek ádabiy tilining nutq me’yorlariga asoslangan gap hosil qilgan holda so‘zlarni to‘g‘ri aytish; 3) berilgan o‘zbekcha matnlarni tez va tushunarli o‘qish (bir daqiqada o‘qish yilning boshinda 20-25 so‘z, o‘qish yilining oxirida 45-50 so‘z; 4) o‘zi o‘qigan matnlarning mazmunini tushinish, o‘zgalar fikrini anglashini asoslab bergan[14].

Dissertatsiyamizda biz DTSning та’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 5-7 -sinflarda ikkinchi tilni bilishi bo’yicha bilim, ko‘nikma va tajibalari o’rganildi. Shundan kelib chiqib, har bir ta’lim bosqichi uchun ta’lim mazmuni uzluksizlik, davomiylik asosida taqsimlangan.

Tadqiqotda ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilida o‘qish, tinglab tushunish, gapirish va yozish ko‘nikmalariga to‘siq bo‘luvchi ijtimoiy omillar va metodik omillar o‘rganildi. Bu omillar qo‘yidagi jadvalda (1.1.-jadval) ko‘rsatilgan.

[13] Рамзаева Т.Г. Языковое образование и его реализация в программе по русскому языку (II - IV классы одиннадцатилетней школы) // Методические основы языкового образования и литературного развития младших школьников: пособие для студентов факультета начального обучения и учителей начальных классов; под общей редакцией профессора Т.Г.Рамзаевой. - СПб.: Специальная литература, 1998. - С.4.

[14] Эрназарова М.С. Таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган мактабларнинг 2-синфларида ўзбек тилини ўқитиш методикаси: Пед. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент: 1999. – Б.15.

1.1.-jadval

Ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan umum ta’lim maktablarida qoraqalpoq tilini bilish darajasiga to‘siq bo‘luvchi omillar

Ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan umum ta’lim maktablarida qoraqalpoq tilini bilish darajasiga to‘siq bo‘luvchi omillar	
Ijtimoiy omillar	**Metodik omillar**
1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi televideniyesida bolalar uchın qoraqalpoq tilidagi ko‘rsatuvlarning kam ekanligi; 2. Qoraqalpoq tilida bolalar uchun maxsus telekanalning yo‘qligi; 3. Qoraqalpoq tilidagi bolalar uchun gazeta-jurnallarning kam sonda nashr qilinishi; 4. Nashriyotlarning talab darajasida faoliyat olib bormasligi; 5. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan sinflar uchun “Qoraqalpoq tili” darsliklarining yetishmasligi.	1. Qoraqalpoq tilida nashrdan chiqarilgan kitoblarning talab darajasida bo‘lmasligi; 2. Umum ta’lim maktablari uchun “Qoraqalpoq tili” darsligidagi mavzularni takomillahtirish va mazmunan boyitish bo‘yicha fan o‘qıtuvchilarining metodik taklif va tavsiyalarining e’tiborga olinmasligi; 3. Bolalarning nutqini rivojlantiruvchi materiallarning kam berilishi; 4. Maktab darsliklarda nazariy mashg‘ulotlarning haddan tashqari ko‘p berilishi.

Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilida o‘qitish masalalari bo‘yicha oldimizga quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

1. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda darsliklarga qo‘yiladigan ixtisoslik talablar bilan tanishib chiqish;

2. Umumta’lim maktablari DTS, o‘quv reja, dasturlar bilan tanishish;

3. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan o‘quvchilar uchun “Qoraqalpoq tili” darsligi bilan tanishish;

4. Umumta’lim maktablarida “Qoraqalpoq tili” fanidan dars beruvchi o‘qituvchilar bilan so‘rovnomalar o‘tkazish;


5. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda “Qoraqalpoq tili” fani bo‘yicha o‘quvchilarning bilim, ko‘nikmalarini aniqlash;

6. O‘quvchilarning nutq, o‘qish va yozishida qiyinchiliklar tug‘ilishining oldin olishga qaratilgan choralar ishlab chiqish;

7. Dissertarsiyamizga aloqador muammolar bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va o‘tkazish;

8. Tajriba-sinovga qaratilgan maktablarni tanlab olish masalalariga e’tibor qaratildi.

Tadqiqotda ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda 5-7 sinf o’quvchilariga qoraqalpoq tilini o‘qitishda quyidagi (1.1-rasm) didaktik tamoyillarni belgilab o’tdik.



1.1-rasm. Qoraqalpoq tilinni o‘qitishda qo‘llaniladigan didaktik tamoyillar

Tadqiqotda ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitishning nazariy va amaliy asoslarini rivojlantirishning pedagogik, lingvodidaktik-psixologik va pragmatik xususiyatlarini, didaktik tizimni modellashtirish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ta’lim jarayonini metodik yondoshuv asosida takomillashtirish zarur ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitish va o‘rgatishning lingvodidaktik imkoniyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida oliy ta’lim muassasalari va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida qoraqalpoq tilini o‘qitishning lingvodidaktik imkoniyatlari, qoraqalpoq tili darslarida o‘quvchilarning o‘qish, bilish (gapirish, o‘qish, nutqni tinglap tushinish, yozuv) ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatları, qoraqalpoq tili o‘qituvchisining lingvometodik kompetensiyası rivojlantirish metodikasi tahlil qilingan.

Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning qoraqalpoq tili darslarida o‘quvchilarning o‘qish, bilish (gapirish, o‘qish, nutqni tinglap tushinish, yozuv) o‘rgatish ko‘nikmalarini o‘rgatish mashg‘ulotlardagi asosiy ish turlarini ifoda etadi. Bugungi kunda bu to‘rt yo‘nalishdagi ta’lim tadbirlari o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma bayon qilish hamda axborot olish madaniyatini, o‘qish madaniyatini egallashga qaray boradi, o‘sha sababli bu yo‘nalishlar bo‘yicha erishiladigan natijalarning ta’lim jarayonidagi, o‘quvchilar hayotidagi ahamiyati yanada ortadi.

Biz tadqiqotda quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

